

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XUSHVAQOV NABI OLIMOVICH

KESH TARIXI VA MADANIYATI
(“Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi materiallari asosida)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi
17.00.06-Muzeyshunoslik: tarixiy-madaniy obyektlarni
konservatsiya qilish, ta’irlash va saqlash

TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of the abstract of dissertation of doctor of sciences (DSc)

Xushvaqov Nabi Olimovich

Kesh tarixi va madaniyati (“Shahrisabz” davlat muzey- qo‘riqxonasi
Materiallari asosida)..... 5

Хушвақов Наби Олимович

История и культура Кеша (По материалам государственного
музея-заповедника «Шахрисабз»)..... 33

Khushvakov Nabi Olimovich

History and culture of Kesh (“Shahrisabz” state museum-reserve)..... 65

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
Listof published works 69

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XUSHVAQOV NABI OLIMOVICH

KESH TARIXI VA MADANIYATI
(“Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi materiallari asosida)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi
17.00.06 – Muzeyshunoslik: tarixiy-madaniy obyektlarni
konservatsiya qilish, ta’irlash va saqlash

TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusil O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.DSc/Tar240 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fati.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Ismoilova Jannat Xamidovna
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mavlonov O'ktam Maxmasobirovich
tarix fanlari doktori, professor

Hasanov Baxtiyor Vaxapovich
tarix fanlari doktori, professor

Tursunov Saypullo Narzullayevich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi tarix fanlar bo'yicha PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023-yil "16" 02 soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (99875) 225-34-13; faks: (99875) 221-00-56; e-mail: qardu@mail.ru). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, O'zbekiston, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (99875) 225-34-13; faks: (99875) 221-00-56; e-mail: qardu@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "31" 01 da tarqatildi
(2023-yil "31" 01 dagi 7 - raqamli reyestr bayonnomasi).



B.J.Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

N.N.Rajabova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash kotibi, t.f.n., dotsent

Y.A.Ergasheva

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy semi. var
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi globallashtirish sharoitida tarixiy-madaniy merosni saqlash, asrab-avaylash hamda borligicha avlodlarga yetkazish bugungi kunda tobora dolzarblik kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi tarixiy, tabiiy meros hududlarida ilmiy, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar sifatida muzeylar yoki muzey-qo'riqxonalar tashkil etish ommalashgan faoliyat turi hisoblanadi. Moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrash, muzeylar ishini muvofiqlashtirish, xalqaro turizm tizimini takomillashtirish masalasi YUNESKOning "Umumjahon madaniy va tabiiy merosini asrash to'g'risidagi konvensiyasiga" asoslanishi ham tanlangan yo'nalishdagi tadqiqotlar xalqaro ahamiyatda ustuvor sanalishini ko'rsatadi.

Bugungi kunda jahon mamlakatlarida tobora rivojlanib borayotgan xalqaro turizmning taraqqiyoti jarayonlari ko'p hollarda muzeylar va muzey-qo'riqxonalar faoliyati bilan bog'liq. Shu boisdan muzeylar rivojlanishi jarayonlarini ilmiy tadqiqotlar doirasiga tortish zahirida jahondagi turli-tuman muzeylar ta'siri va turistik ahamiyatining reallashuvi, ularning iqtisodiy-kommunikativ jihatlari hamda xususiyatlarini ilmiy-qiyosiy tahlil etish dolzarb hisoblanadi. Binobarin, yer yuzining turli mintaqalarida muzeylar faoliyatining o'ziga xos jihatlari, rivojlanish qonuniyatlarini, mahalliy xususiyatlarini tadqiq etish bo'yicha tizimli ilmiy izlanishlar olib borilib, bu jarayonlar dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda.

O'zbekistonning qadimiy va boy tarixi, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, madaniy merosni asrash hamda turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"¹. Bu esa Yangi O'zbekiston sharoitida muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish, turizm taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda tarix merosini asrab-avaylashga e'tiborni kuchaytirishni talab etadi. Ushbu jarayonlarni muzey ashyolari asosida xolisona tahlil etib, ilmiy muomalaga kiritish ham dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rnini va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2018-yil 26-avgustdagi PQ-3920-son "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 26-avgustdagi PQ-3920-son "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-son "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ. 2017. – Б. 29.

chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 6-avgustdagi 621-sonli qarorlari, “Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida “Maqom muzeyi” faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sarmishsoy”, “Shahrisabz”, “Termiz” va “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2019-yil 30-maydagi 443-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-dekabrda 1019-son “2020-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”²gi Farmonida va sohani rivojlantirishga oid meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli dasturiy ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Janubiy Sug‘dning antik va ilk o‘rta asrlarining yozma va moddiy madaniyati o‘rganilishiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar jahonning ilg‘or ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy o‘quv yurtlari, jumladan, Parij, Nanter universiteti (Fransiya), Varshava universiteti (Polsha), Germaniya arxeologiya instituti Yevroosiyo bo‘limi (Germaniya), O‘zR FA Arxeologik tadqiqotlar institutining O‘zbekiston-Fransiya MAFO‘z – Sangirtepa xalqaro ekspeditsiyasi, O‘zbekiston-Italiya xalqaro ekspeditsiyasi, O‘zbekiston-Amerika (Nyu-York universiteti) xalqaro ekspeditsiyalari tomonidan olib borilmoqda. Jahon ko‘lamida antik va ilk o‘rta asrlar tarixi va madaniyatiga bag‘ishlangan izlanishlarda chet el muassasalarida zamonaviy tadqiqotlar va innovatsion uslublar orqali bir qator muhim ilmiy xulosalarga erishilgan. Masalan, davrning sanasi, hududdagi diniy munosabatlar, dafn marosimlari, dehqonchilik madaniyatlari (MAFOuz de Sogdiane), Buyuk Ipak yo‘lidagi savdo aloqalari, aholining antik davr va ilk o‘rta asrlardagi xo‘jaligi tadqiq qilingan.

Kesh viloyati tarixi va madaniyati mavjud birlamchi manbalari, muzeylarga oid ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari, O‘zbek-Turkiya ekspeditsiyasi, Ermitaj Davlat muzeyi, Sankt-Peterburgning Etnografiya davlat muzeyi, Tojikiston FA tarix, arxeologiya va etnografiya instituti, Panjikent davlat universiteti tomonidan ham tadqiq etilmoqda.

O‘zbek-Fransiya (MAFO‘z) ekspeditsiyasining hamkorlikdagi tadqiqotlari natijasida Kesh shahrida shakllangan Uzunqir, Sangirtepa va Podayotoqtepa yodgorliklari tadqiq etilib, Markaziy Osiyoda eng qadimgi zardushtiyalar ibodatxonasi aniqlangan. Zardushtiylik dini va madaniyati bilan birgalikda aholining xo‘jalik turi, uy-joylar va numizmatik materiallar ham alohida tadqiq etilmoqda.

² <https://lex.uz/docs/5841063>. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон.

YUNESKO va IKOM (Xalqaro Muzeylar Kengashi) tomonidan O‘zbekistondagi muzeylar va muzey-qo‘riqxonalarining osori-atiqalar fondidagi ahvol, eksponatlarning saqlanish holati, ularni o‘rganish hamda targ‘ib etish masalasida tavsiyalar, qo‘llanma va yo‘riqnomalar ishlab chiqilgan³.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi⁴. Mustaqillik yillarida muzeyshunoslik sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar, adabiyotlar tahlili, muzeylarni qayta qurish, yangilarini yaratish bo‘yicha olib borilgan bunyodkorlik ishlarini umumlashtiruvchi, fundamental tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi. Yuqoridagi holatlarni hisobga olib dissertatsiya mavzusiga doir bo‘lgan adabiyotlar uch guruhga bo‘lib o‘rganildi:

1. Sovet hukmronligi davridagi muzeylar tarixi va muzey ishiga oid nashr etilgan ilmiy adabiyotlar, maqola va risolalar.

2. Mustaqillik davrida yaratilgan tadqiqotlar, davriy matbuot materiallari, o‘quv qo‘llanmalar hamda darsliklar.

3. Xorij tarixshunosligida muammoning talqini.

Birinchi guruhga sovet davri O‘zbekiston tarixi, muzeyshunoslik adabiyotlari mohiyati va mazmuniga ko‘ra kommunistik mafkura, sinfiylik nuqtai nazaridan yondashilganligi bilan xarakterlangan, shuningdek, muzeyshunoslik mavzusiga doir maxsus asarlar deyarli uchramaydi. Shahrizabz shahrida esa muzey mavjud bo‘lmaganligi sababli tarixiy me‘morchilik inshootlariga oid arxeologik va yozma manbalar tahliliga doir adabiyotlar uchraydi.

Bu davrda V.V.Bartold, B.V.Lunin, G.A.Pugachenkova, M.Ye.Masson, Z.Usmanova, A.Sagdullayev, P.Zohidov, X.Sultanov, G.Dresvyanskaya, N.P.Stolyarova, N.I.Krashennnikova va boshqalar tomonidan arxeologik hamda me‘morchilik tarixiga oid manbalar tahlil etilganligini keltirib o‘tish lozim⁵.

XX asrning 90-yillarigacha qadimgi Kesh-Shahrizabz arxeologiyasi va tarixiga oid ma‘lumotlar asosan Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) qoshida tashkil etilgan KATE (Kesh arxeologik topografik ekspeditsiyasi) a‘zolarining nashr ettirgan ishlarida uchratish mumkin⁶.

Ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida bir qator tarixchi, san‘atshunos va muzeyshunos olimlar tomonidan yaratilgan muzeyshunoslikka oid tadqiqot, adabiyotlar hamda davriy matbuot materiallari kiradi. O‘zbekiston muzeylarining mustaqillik davridagi faoliyati va taraqqiyoti bo‘yicha L.Mankovskaya, J.Ismoilova, M.Bekmurodov, M.Rashidova, R.Almeyev, D.Kuryazova, G.Fuzailova, M.Hasanova, I.Ilatov⁷ asarlari mavjud. Mustaqillik davridagi muzeylar faoliyati va taraqqiysi

³ Cultural transfers in Central Asia: before, during and after the Silk Road. Pfris-Samarqand ICAS.2013.

⁴ Muammoning o‘rganilganlik darajasi dissertatsiya matnidagi tegishli bo‘limlarda batafsil berilgan.

⁵ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Сочинение, Т.II. ч. 1. 1963. – С. 167-433; Семёнов А.А. Некоторые особенности материальной культуры прошлых эпох Средней Азии // Известия Средазкомстарис. 1928. Вып. 1. – С. 11-13; Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. – Ташкент: Фан, 1958; Его же. Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность. – Ташкент: Фан, 1962. – С. 112.

⁶ Дресвянская Г.Я., Лунина С.Б., Султанов Х.С. и Усманова З.И. Шахрисабз. 1-2 том. – Ташкент: Университет, 1983.

⁷ Бекмуродов М., Рашидова М. Музейшunoslik. – Тошкент, 2006. – Б. 102; Илатов И. Музееведение. – Ташкент: Мусика, 2006. – С. 357; Курязова Д.Т. Музей иши тарихи ва назарияси. Касб-хунар коллежлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б. 160; Фузаилова Г., Хасанова М. Музееведение. – Ташкент: Фан ва технологиялар босмахонаси, 2008. – Б. 192; Маньковская Л.Ю. Бухара: Музей под открытым небом. – Ташкент: Издательско-полиграфический дом имени Гафура Гуляма, 1991. – С. 255.

M.Isakovanning nomzodlik dissertatsiyasida⁸ arxiv ishi va muzey ishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik O'zbekiston arxiv fondlarini yaratish misolida bayon etilgan.

Mustaqillik yillarida nashr etila boshlangan "Moziydan sado" jurnali O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan muzeylarning tarixi va faoliyatini o'rganishda katta hissa qo'shayotganini alohida ta'kidlash lozim. Unda nashr etilgan qator Shahrisabz muzeyidagi ilmiy tadqiqotlar, ekspozitsiyalar hamda fond materiallari ilmiy maqolalari tarzida yoritilmoqda. Umuman olganda esa muzeylarning rivoji, taraqqiyoti hamda istiqboli sohasidagi yetakchi muzeyshunos mutaxassislar J.Ismoilova, E.Rtveladze, N.Habibullayev, Q.Inoyatov, R.Almeyev, R.Fatxullayev, O'.Yormuhammedov, L.Levteyeva, I.M.Jabborov, D.Rahimova, R.Qayumov, Y.Ergasheva, Sh.Vohidov va boshqalarning ilmiy ishlarini qayd etish lozim. Ushbu maqolalarning har biri muzeyshunoslikka oid muammolarga bag'ishlangan bo'lib, muayyan masalalarni yoritishga qaratilgan⁹.

R.Fatxullayev XX asrning 90-yillaridan kompyuterlardan muzey faoliyatida foydalanish, soha ma'lumot tizimini shakllantirish, axborotni to'laqonli yetkazish imkoniyatlarini kengaytirganligini qayd etgan. Shuningdek, O'zbekiston muzeylarida ham ushbu jarayonlar endi boshlangani ta'kidlangan¹⁰. Sh.Vohidov va J.Yoqubovlarning ilmiy maqolalari Janubiy O'zbekistondagi maktablarda tashkil etilgan muzeylar, muzey-kabinetlari, xonalarining faoliyati va ularning ahamiyatiga bag'ishlanadi. N.I.Alimova Sobiq Sovet hukmronligi davrida Turkistonda milliy madaniyat sohasidagi siyosatni tadqiq etgan¹¹. Bugungi kunda muzey ishi va muzeyshunoslik bo'yicha bir nechta dissertatsiyalar himoya qilingan bo'lib, M.Isakovanning nomzodlik dissertatsiyasida¹² arxiv ishi va muzey ishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, O'zbekiston arxiv fondlarini yaratish misolida bayon etilgan. D.Kuryazova ko'p yillik izlanishlari davomida O'zbekistonda muzey ishini yo'lga qo'yishning qator yo'nalishlarini o'rganib, o'zining yakuniy xulosalarini bayon etishga harakat qilgan¹³, D.A.Qurbonovanning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyasi aynan muzey ishi tarixiga bag'ishlangan. Muallif o'z izlanishlarida asosiy e'tiborni asosan xorij muzeylarida O'zbekiston tarixiga oid saqlanayotgan kolleksiyalarni o'rganishga qaratadi¹⁴. Ushbu mualliflar dissertatsiyalarida mustaqillik yillarida O'zbekistonda muzey ishini ijtimoiy-madaniy jihatdan rivojlantirishning istiqbollari masalasini o'rganishga harakat qilgan. Xullas, muzey ishi bo'yicha qator ilmiy

⁸ Исакова М.С. История Центрального государственного архива кинофотофонодокументов и его деятельность по созданию фондов истории культуры Узбекистана: Автореф. дис канд. ист. наук. – Ташкент: УзМУ, 2004. – С. 30.

⁹ Альмеев Р. Бухара – город музеев. – Ташкент: Фан, 1999. – С. 205; Его же. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Ташкент: Издательско-полиграфический дом имени Гафура Гуляма. 2007. – С. 268.

¹⁰ Фагхуллаев Р. Музей ишида замонавий ахборот технологияси // Моziydan sado. – Тошкент, 2002. – № 2. – Б. 8.

¹¹ Алимova Н.И. Чор Россиясининг Туркистонда миллий маданият соҳасида олиб борган сиёсати: Тарих фан. ном. дис автореферати. – Тошкент: Ўз ФА Тарих институти, 2006. – Б. 29.

¹² Исакова М.С. История Центрального государственного архива кинофотофонодокументов и его деятельность по созданию фондов истории культуры Узбекистана: Автореф. дис канд. ист. наук. – Ташкент: УзМУ, 2004. – С. 30.

¹³ Курязова Д.Т. Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти (тарих ва ўлкашунослик музейлари мисолида). Тарих фан. ном. дис. ... автореферати. – Тошкент, 2009. – Б. 30.

¹⁴ Курбонова Д.А. Хориж музейларида сақланаётган теурийлар даврига оид тарихий ва маданий ёдгорликлар. Тарих фан. ном. дис автореферати. – Тошкент: ЎзМУ, 2009. – Б. 24; Курбонова Д.А. Жаҳоннинг йирик музейларида Ўзбекистонга оид коллекцияларнинг шаклланиши ва уларни комплетлаш тамойиллари. Тарих фанлари доктори (ДСс) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – Б. 30.

maqolalar, monografiyalar va o'quv qo'llanmalar yaratilib, dissertatsiya ishlari himoya qilingan bo'lsada, Keshning tarixi va madaniyati "Shahrisabz" davlat muzey qo'riqxonasi fondidagi muzey ashyolarini saqlash va targ'ib etish faoliyati tarixi yaxlit tarzda tarixchilar tomonidan tadqiq etilmagan.

Uchinchi guruh Xorij tarixshunosligida muammoning talqini bo'lib, ulardan dissertatsiya tadqiqoti jarayonida muammoning qiyosi Rossiya¹⁵ va Yevropa¹⁶ muzeylarining tarixi, muzey ishi, bozor munosabatlari shakllangan jamiyatda muzeylarning boshqaruvi, moliyalash va boshqa nazariy hamda amaliy masalalarga oid qator monografiya, darslik va tadqiqotlarni tahlil etilib, "Shahrisabz" davlat muzey-qo'riqxonasida foydalanilishi mumkin bo'lgan jihatlariga e'tibor qaratildi.

Ayniqsa, muzeylar tarixi rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan atroflicha o'rganilgan bo'lib, bu yo'nalishda qator dissertatsiya ishlari himoya qilingan¹⁷. Ushbu dissertatsiya ishlari asosan tarix ixtisosligi bo'yicha himoya qilinganligi bilan qimmatlidir.

Mazkur tadqiqotlar darajasini tahlil qilish natijalari mustaqillik davrida muzeylarni qayta qurish va yangilarini yaratish borasida respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlarda nazariy va amaliy yordam berish mumkin.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya ishi Qarshi davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Qashqadaryo vohasi madaniyatining rivojlanish bosqichlari va sug'orilish tarixi (qadimda va o'rta asrlarda)" (shifri: A1-FA-0-17607), "Qashqadaryo vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri tarixiy topografiyasi (yozma va arxeologik manbalar asosida)" (shifri: FA-A1-G012) mavzusidagi amaliy tadqiqotlar loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Kesh vohasining tarixi, madaniyati yozma manbalar, arxeologik manbalar, janubiy Sug'ddagi o'ziga xos xususiyatlar, moddiy madaniyati, muzeyshunoslik masalalari, jamlanmalarining hisobga olish, sohaga oid qarorlar va farmonlar ijrosi, eksponatlarni tahlil etishdan iborat.

¹⁵ Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А.А.. – М.: Издательство «ВК», 2003. – С. 615; Юреньева Т.Ю. Музеи в мировой культуре. – М.: Русское слово, 2003. – С. 435; Юреньева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003. – С. 382; Столяров Б.А. Музейная педагогика: история, теория, практика. – М., 2004. – Б. 255; Тельчаров А.Д. Основы музейного дела. – М.: Омега, 2005. – С. 182; Туманов В.Е. Общественные музеи // Российская музейная энциклопедия. Т.2. – М., 2001. – С. 43; Музейное дело и охрана памятников. Реферативно-библиографическая информация. Выпуск 3. – М.: РГБ, 2006. – С. 65.

¹⁶ Qarang: Allexander E.P. Museums in Motion. An Introduction to the History and Function of Museums. Nashville: American Association for State and Local History, 1979. – P. 132; Bennet T. The Birth of the Museum: History, Theory, Politics. London: Routledge, 1995. – P. 350; Bernard G. New Forms of Exhibition Planning in Museums // International Journal of Museums Management and Curatorship. 1988, V. 7, No1. – P. 81-84; Bernard G. Collaboration with Wider Community // Museum News. 1989, Vol. 7, No3. – P. 16-18.

¹⁷ Рубан Н.И. История музейного строительства на советском Дальнем Востоке. 1920-1930-х гг. XX века. . автореф. дис. на соиск. уч ст. канд. ист. наук. – Хабаровск, 2001. – С. 22; Петухов В. В. Становление и развитие художественных музеев на юге Дальнего Востока России. (1930-1956 гг.): Автореф. дис. на соиск. автореф. дис. на соиск. уч ст. канд. ист. наук. – Хабаровск, 2001. – С. 22; Петухов В.В. Становление и развитие художественных музеев на юге Дальнего Востока России (1930-1956 гг.): Автореф. дис. на соиск. уч. степ. канд. ист. наук. – Владивосток, 2007. – С. 22; Поправко Е.А. История музейного дела в приморском крае (1941-2000 гг.). Автореф... дисс...канд...ист. наук. – Санкт-Петербург, 2007. – С. 24; Саяпарова Е.В. История музейного дела в Бурятии (конец XIX-XXI в.): Автореф. дисс...канд ист. наук. – Улан-Удэ. – С. 2012 и др.

Tadqiqotning vazifalari:

“Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasining arxeologik jamlanmalarini hisobga olish, saqlash, ilmiy ta’riflash, hujjatlashtirishning huquqiy asoslari va amaliyoti masalalarini tahlil etish;

O‘zbekistonda arxeologiya va muzeyshunoslik ishlarni tartibga solish borasidagi ahvol hamda muzeyshunoslik sohasiga oid qarorlar, farmoyishlar va ularning “Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasidagi ijrosi masalalarini yoritish;

Qadimgi Kesh tarixi va madaniyatiga oid arxeologik, yozma manbalar ma’lumotlari hamda ularning “Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi ekspozitsiyalarida aks etishini ilmiy tahlil etish;

Keshning arab istilosiga qadar bo‘lgan tarixi va madaniyatini ko‘rgazmalarda aks etishini yoritish hamda Muqanna qo‘zg‘oloni va uning qal’asi haqidagi yangi ma’lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish;

“Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi san’atga oid terrakotalar, aktyorlar niqobi aks etgan plitka, Alakuylak terrakotasi, umuman, san’atning paydo bo‘lishi va rivojlanishi kabilarni aniqlashtirish;

Maqom san’atining kelib chiqishi va taraqqiyotini arxeologik hamda yozma manbalar asosida o‘rganish, maqom san’ati muzeyi tashkil etilishi va “Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasining istiqbollarini yoritib berish;

O‘zbekistonda davlat muzey-qo‘riqxonalarini tashkil etilishi va boshqarishning qonunchilik negizi va qonunosti hujjatlarini tahlil qilib tarixiy aspektlarini yoritish asosida davlat muzey-qo‘riqxonalarini rivojlantirishning tashkiliy, ilmiy va loyihaviy ta’minlash tizimini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondi, huquqiy normativ hujjatlar tahlili, qadimgi Kesh-Shahrisabz shahrining moddiy madaniyati, tarixi, maqom muzeyini tashkil etilishi va maqom tarixi kabi masalalar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini tarix hamda muzeyshunoslikka oid normativ huquqiy hujjatlar, muzey-qo‘riqxonalar fondi, Kesh-Shahrisabzning arxeologiyaga oid topilmalar, muzey ashyolari va ekspozitsiyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, fiksatsiyalash, ilmiy tavsiflash, tasniflash, tarixiy-arxeologik va yozma manbalar ma’lumotlarini umumlashtirish, tizimli tahlil mavzu bo‘yicha ilmiy qarashlar va konsepsiyalarning qiyoslash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Muzey qo‘riqxonalar, umuman, muzeylar infratuzilmasining huquqiy-normativ hujjatlarini takomillashtirishning bugungi kundagi zarurati, ehtiyoji, fondlar hamda ko‘rgazmalarda namoyish etilayotgan osori-atiqalar va san’at tarixiy faktologik manbalar asosida dalillangan;

Sug‘d hududida ilk o‘rta asrlarda keng tarqalgan ossuariylar (ostadonlar) jumladan, O‘zbekiston tarixida “Shahrisabz ossuariysi” deb ataluvchi noyob arxeologik topilma va Yumaloqtepa materiallari ilk bora ilmiy muomalaga kiritilgan;

Yakkabog‘ tumaniga qarashli Alakuylak qishlog‘i hududidagi “Qovurg‘a Ota” qabristonidan topilgan yangi topilma-terrakota ilmiy-qiyosiy tahlil etilib,

unda Siyovush qiyofasi ifodalangani dalillanib, Alakuylak terrakotasi nomi bilan ilmiy muomala doirasiga tortilgan;

Shulluktepa yodgorligidan topilgan sopol plaketkada eramizdan oldingi I asrlarga mansub Sug'd teatri aktyorlarining niqoblari aks etgani, teatr san'ati grek-rim san'ati ta'siri asosida shakllanganligi, hamda "Oq kiyimlilar qo'zg'oloni" yetakchisi Muqanna qal'asi joylashgan joy yangidan aniqlanib, tarixiy topografik tadqiqotlar natijasida qurilishi va qo'zg'oloni tarixi keng miqyosda tahlil etib asoslangan;

YUNESKOning nomoddiy madaniyati ro'yxatiga kiritilgan "Shoshmaqom" ekspozitsiyasi yaratish masalasi, maqom tarixiga oid yozma va arxeologik manbalarni tahlil etish va inklyuziv uslubda ko'rgazmalar yaratish jarayoni aniq misollar asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: "Shahrisabz" davlat muzey-qo'riqxonasi faoliyati va tarixini tahlil qilish asosida O'zbekistondagi muzeyshunoslik masalasidagi mavjud qonunlar, qonunosti hujjatlari, yutuqlar hamda muammolar ko'rsatib berilib, muzeyni takomillashtirish uchun amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O'zbekistondagi mavjud qonunlarga asosan muzey fondlaridagi arxeologik ashyolarni to'plash, hujjatlashtirish, saqlash va ilmiy muomalaga kiritish uchun amaliy yo'riqnomalar ishlab chiqilib, O'zbekiston tarixi va muzeyshunosligi ixtisosligi bo'yicha muzey-qo'riqxonalarining ilmiy xodimlari uchun tarix va madaniyat yo'nalishida ekskursiya hamda ma'ruza matni yaratilgan, yangi o'lkashunoslik muzeylarini tashkil etish, boshqarish, muzey kolleksiyalarini saqlash, namoyish etish jarayoni va istiqbollari bo'yicha xulosalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Dissertatsiyada mavzuga oid adabiyotlar, arxiv materiallari, yozma manbalar, xalqaro konvensiyalar, ilmiy safarlar ma'lumotlari kabi turli xarakterdagi birlamchi manbalarga asoslanilganligi, yozma manbalar, qazishma ishlarida qo'lga kiritilgan arxeologik materiallardan foydalanilganligi, arxeologiya va muzeyshunoslik fani yo'nalishlarida tan olingan usullar va nazariy yondashuvlarning qo'llanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jahon yirik muzeylarida saqlanayotgan O'zbekistonga oid ashyolarni jamlashga metodologik yondashuvlar hamda ularni kataloglashtirish bo'yicha nazariy-amaliy xulosalarni mukammallashtirishda foydalanish bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, O'zbekistonda muzey ishi tarixi, moddiy-madaniy merosni o'rganish, saqlash, tadqiq etishga bag'ishlangan maqsadli davlat dasturlarining bajarilishini takomillashtirishga, shuningdek, oliy o'quv yurti tarix yo'nalishi talabalari uchun "Muzeyshunoslik", "Tarixiy o'lkashunoslik" kurslari bo'yicha maxsus kurslar, shu bilan birga O'zbekiston tarixining tegishli bo'limlarini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Kesh tarixi va madaniyatining “Shahrisabz” davlat-muzey qo‘riqxonasi muzey ashyolarini saqlash va targ‘ib etishdagi o‘rni mavzusidagi tadqiqotlarga doir olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflardan:

Milliy an‘ana hamda qadriyatlarimizni tiklash, rivojlantirish, arxeologik yodgorliklarni o‘rganish, asrash, ulardan foydalanish, ommalashtirish bo‘yicha yechim topishda “Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi eksponatlarni saqlash, tadqiq etish va ekspozitsiyalar yaratish ishlari amalga oshirishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2022-yil 17-dekabrda 01-10/437 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Shahrisabz shahrida yangi ekspozitsiyalar yaratilib, fondagi eksponatlarni hujjatlashtirishda yangi tartiblar joriy etilgan.

O‘zbekiston tarixi va madaniyatida teatr san‘atining paydo bo‘lishi va rivojlanishi antik davrda paydo bo‘lgani va davr jihatdan 2100 yildan ziyod ekani, teatr san‘atining genezisi Yevropa ta’siri ostida rivojlangan kabi ma‘lumotlardan O‘zbekiston teleradio kompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Bir eksponat tarixi” ko‘rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2022-yildagi 9-martdagi 01-06-69-sonli ma‘lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanishi teatr san‘atining shakllanish jarayoni antik davr bilan bog‘liq ekanligi asoslangan.

O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasining “Dunyo bo‘ylab” telekanali orqali Shahrisabzdagi muzeyshunoslik yo‘nalishlari, osori-atiqalar, Alakuylak qishlog‘i hududidagi qabristondan topilgan Siyovush qiyofasi aks etgan terrakota, Siypantosh, Uzunqir va Sangirtepa ibodatgohlari haqidagi ilmiy-ommabop hujjatli filmlar tasvirga olingan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Dunyo bo‘ylab” telekanali Davlat muassasi 2022-yil 16-martdagi 03-14-83-sonli ma‘lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanishi asosida muzeylardagi ekspozitsiyalarda yangi qo‘llanma va yo‘riqnoma ishlab chiqilgan, “Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi ekspozitsiyalarini tomosha qilgan mahalliy va xorijiy sayyohlar estetik zavq olib, teletomoshabinlarga esa o‘zbek xalqi tarixi va madaniyatiga oid yangi ma‘lumotlar olish imkonini bergan.

Qarshi shahrida rejalashtirilgan “Vatan mudofasi tarixi” muzeyi konsepsiyasini yaratishda dissertatsiyaning Muqanna qo‘zg‘aloniga oid materiallardan foydalanilgan (Mudofaa vazirligining 2022-yil 17-dekabrda 42/773-sonli malumotnomasi). Ilmiy natijalar asosida ko‘rgazmalar yaratish uchun mavzuiy ish rejasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan 9 ta xalqaro va 10 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 43 ta ilmiy ish e‘lon qilingan. Shundan 5 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, xorijiy jurnallar va konferensiyalarda 9 maqola, 1 ta elektron va yozma katalog chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot 202 varaqni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslab berilgan, o'rganilish darajasi tavsiflangan, ishning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Shahrisabz” davlat muzey-qo'riqxonasining arxeologik jamlanmalarini hisobga olish, saqlash, ilmiy ta'riflash, hujjatlashtirish ishlarining huquqiy asoslari va amaliyoti** deb nomlangan birinchi bobning birinchi paragrafi **“Arxeologik ashyolarning ilmiy ta'riflash, hujjatlashtirish ishlari, huquqiy asoslari”** deb nomlanadi. O'zbek xalqining kelib chiqishi va genotipini ishlab chiqish arxeologik, etnografik va biologik fundamental tadqiqot hisoblanadi¹⁸. Muzey fondlari xalqimizning genofondi saqlanadigan manbalar makonidir. Arxeologik predmet yoki ashyo deganda arxeologik izlanishlar natijasida topilgan, o'zida madaniy yoki texnik ma'lumotlarni saqlagan genotipga oid insoniyat faoliyati bilan bog'lik, qo'zg'aluvchan ashyolardir. “Shahrisabz” davlat muzey-qo'riqxonasi fondida arxeologik yodgorliklar – tepalar, me'morchilik obyektlari hududidan arxeologlar ishtirokida topilgan va ular tomonidan topshirilgan arxeologik ashyolar arxeologik topilmalar deb qayd etilgan. Ayrim arxeologik topilmalar, masalan, ular butun saqlangan va maishiy hayotda ishlatilgani aniqlangan bo'lsa (masalan, sut idishlar yoki diniy an'analarga xizmat qilgan idishlar kabi) etnografiya to'plamiga ham kiritilgan. Bu masalada “Muzeylar to'g'risida”gi Qonunga asoslanadigan bo'lsak, qonunda “muzey ashyosi – sifati yoki alohida belgilari jamiyat manfaatlari uchun saqlash, o'rganish va ommaga namoyish etish zaruratini taqozo etuvchi madaniy boylik” deb ko'rsatilgan¹⁹.

Sovet Ittifoqi davridagi muzeyshunoslikka oid adabiyotlarda muzey ashyosi moddiy va ma'naviy madaniyatdagi jamoatchilik munosabatlariga oid ashyo deb ta'riflangan²⁰. Sloveniyaning atoqli muzeyshunosi Z.Stranskiy “madaniy, axborot va hujjatlar qiymatiga ega muzey predmetlari – muzey ashyosi” deb ta'riflagan. Nemis muzeyshunos nazariyotchi olimi V.Ennenbax tabiat va jamiyat munosabatlari haqida guvohlik beruvchi materialni muzey ashyosi deb hisoblaydi. Shunday qilib, muzeyshunos nazariyotchilar o'rtasida muzey ashyolari va muzey

¹⁸ Пежемский Д. Метод Герасимова-это исключительное достижение нашей науки. «Русский мир.ru»2021, июля. – С. 21-22.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasining “Muzeylar to'g'risida”gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2008-yil 26-iyunda qabul qililib, Senat tomonidan 2008 yil 28 avgustda ma'qullangan.

²⁰ Основы советского музееведения, 1955. – С. 35

predmetlari masalasida yagona ta'rif yo'q²¹. Bu masalada 2001-yildan nashr etilgan Rossiya muzeyi ensiklopediyasining ta'rifi ma'qulroq ko'rinadi²². Bu yerda insonning ijtimoiy hayotdagi faoliyati natijasida yaratilgan ashyolar, yodgorliklar, tabiiy tarixga oid ashyolar qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas predmetlar ilmiy va madaniy qiymatga ega bo'lsa, muzey ashyosi hisoblanadi, deb ta'rif berilgan. Shuningdek, unda "muzey predmeti – u qo'zg'aluvchan madaniy yoki tabiiy meros obyekti bo'lib, manba sifatida bilim va estetik zavq beradigan materialdir", deya ta'kidlanadi.

"Shahrisabz" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi arxeologik kolleksiyalarga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq, ya'ni arxeologik kolleksiyalar-arxeologik predmetlardan iborat, ular fondida saqlash va ekspozitsiyalarda namoyish etishda "bo'linmas" ashyolar to'plamidir. Barcha muzeylar qatori "Shahrisabz" davlat muzey-qo'riqxonasi fondida ham turli xil uslublarda yig'ilgan, sotilib olingan, arxeologik yodgorliklar atrofidan tasodifan topilgan yoki arxeologlar tilida "yodgorlik ustidan topilgan arxeologik ashyolar" ham mavjud. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida **"arxeologiya ashyosi** – arxeologiya qidiruvlari, arxeologiya qazishmalari va arxeologiya nazoratini amalga oshirishda yoki xo'jalik va o'zgacha faoliyat jarayonida aniqlangan, shuningdek tasodifan topilgan (xazina) va identifikatsiyalashdan o'tkazilgan moddiy qoldiq" sifatida ifodalangan²³.

Qonunlar va qonunosti hujjatlarida fuqarolar tomonidan topilgan arxeologik ashyolar yoki kolleksiyalar bo'yicha aniq ko'rsatma yoki nizom ishlab chiqilmagan. Masalan, fuqaro o'z xonadonida olib borayotgan xo'jalik ishlari jarayonida yerostidan topib olgan arxeologik ashyo yoki arxeofaktga bo'lgan munosabati to'liq aks etmagan. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, barcha yerosti boyliklari xalq mulki, arxeologik ashyolar ham xalq madaniy mulki sifatida davlat muzeylari fondiga tekin topshirilishini qayd etilishi lozim. Shunday holatda yodgorliklarda noqonuniy arxeologik qazish ishlari olib borayotgan "qora arxeologlar" faoliyatiga ham chek qo'yilgan bo'lar edi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi **"Muzey-qo'riqxonadagi fondlar va ularda arxeologik ashyolarning saqlanishi"**ga doir O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2008-yil 26-iyunda qabul qilinib, Senat tomonidan 2008-yil 28-avgustda ma'qullangan "Muzeylar to'g'risida"gi Qonunda muzey – muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi sifatida qayd etilgan. Muzey ashyosi – sifati yoki alohida belgilari jamiyat manfaatlari uchun saqlash, o'rganish va ommaga namoyish etish zaruratini taqozo etuvchi madaniy boylik deb e'tirof etiladi. Aslida ko'plab davlatlarning qonunchilik hujjatlarida muzeylar ilmiy tadqiqot muassasasiga tenglashtirilgan holda, madaniy-ma'rifiy tashkilot yoki muassasa sifatida e'tirof etilgan.

²¹ Ismoilova J.X. Muxamedova M.S. Zamonaviy jahon muzeyshunosligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – B. 22.

²² Российская музейная энциклопедия, 2001. – С. 405.

²³ "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi.

1996-yilda Shahrisabzda yangi tashkil etilgan (dissertant N.Xushvaqov) muzey fondini to'ldirish bo'yicha sa'y-harakati (Arxeologiya kafedrasini mudiri bo'lib ishlagan) akademik A.S.Sagdullayev tomonidan qo'llab-quvvatlandi²⁴. Arxeologiya kafedrasini tomonidan topshirilgan kolleksiyalarning tarixiy xronologik davri so'nggi paleolitdan XVIII asrlargacha bo'lgan davrlarni qamrab oladi²⁵.

Shuni tan olish kerakki, arxeologlar tomonidan topshirilgan arxeologik ashyolar – muzey predmetlari amaldagi tartib va qoidalar asosida muzeyning *Kirim Kitobi* (KK hamda *Inventarlar kitobi*)ga kirim qilingan. Arxeologik ashyolar va kolleksiyalar XX asrning 50-yillaridan boshlab to 1990-yillargacha bo'lgan davrni qamrab oladi va ularni hujjatlashtirishda ekspeditsiyalarda ishlagan arxeologlarning kundaliklari, hisobotlari, karta va sxemalari yo'q. Bu hujjatlar ilmiy yordamchi fond materialidir va ular birgalikda muzey fondi, ilmiy yordamchi material sifatida to'ldirgan bo'lar edi. Ilmiy hisobotlar esa predmetning topilgan joyi, yodgorlik nomi, madaniy qatlami, kvadrat metri va hokazolar kabi holatlar qayd etishda hamda muzeyning fond kitoblarida hujjatlashtirish ishlarida katta yordam berishi mumkin edi. Qabul qilingan arxeologik kolleksiyalarning hammasi ham ekspozitsiyalarda foydalanish imkonini yo'q. Ammo, ular kelajakda tashkil etiladigan ekspozitsiyalar va ilmiy tadqiqot ishlarida mislsiz xizmat qiladi.

Xullas, bugungi kunda muzeylarning zamonaviy mediamakonda munosib o'rin egallamagani, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to'liq joriy etilmagani sohani xalqaro madaniy jarayonlarga integratsiya qilishga yo'l bermayapti. Milliy madaniyatning barcha yo'nalishlari moddiy va nomoddiy madaniy meros hamda muzeylari, ilm-fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, madaniyat turizmi sohalarida rivojlantirishni eng e'tiborlisi, O'zbekiston tarixining ochilmagan qirralarini ochishda muzey ekspozitsiyalariga ko'proq murojaat etishni talab qilmoqda. Ushbu qadriyatlarimiz va madaniy meros obyektlarimiz yoshlar tarbiyasini mukammal rivojlantirish, ular dunyoqarashini o'zgartirib, globallashtirish zamonida tubanlikka tushib qolmasliklarida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobini **“Keshga oid arxeologik va yozma manbalar va ularning “Shahrisabz” davlat muzey-qo'riqxonasi ekspozitsiyalarida aks etishi”** va birinchi paragrafi esa **“Keshning arab istilosiga qadar tarixi va muzey ko'rgazmalarida aks etishi”** deb nomlangan.

Yangi ma'lumotlarga ko'ra, Qadimgi Kesh viloyati tarixi Chiroqchi tumanidagi Quruqsoy qishlog'ida joylashgan Siypantosh yodgorligi *Homo sapiens* – sapiens (aqli odam) tomonidan yaratilgan eng dastlabki rangli san'at asarlarini ekspozitsiyasidan boshlanadi. O'rta Osiyoda YUNESKOning tavsiyalariga asoslangan holda qoyatoshlardagi rasmlarni tadqiq etishning ilg'or uslubi Norvegiya-Qozog'iston arxeologik ekspeditsiyasining Tamg'ali yodgorligida olib

²⁴ Сагдуллаев А.С. Ўрта Осиёда биринчи ихтисослашган археология мактаби. Ўрта Осиё археологияси кафедраси: Авлодлар изланиши ва кашфиётлари. Кафедра археологии Средней Азии: Поиск и открытия поколений, 2020. – Б. 3-12.

²⁵ “Shahrisabz” davlat muzey-qo'riqxonasining 1-8 fond kitoblari.

borilgan edi²⁶. Bu loyiha 2001-2006 yillarda amalga oshirilgan va ekspeditsiyada arxeologlar, geologlar, biologlar hamda muzey xodimlari ishtirok etib, kompleks tadqiqotlar o'tkazilgan. Kompleks tadqiqotlar Qozog'istonning "Tamg'ali arxeologik landshafti petrogliflari" ni YUNESKONing "Umuminsoniyat merosi" ro'yxatiga kiritilishiga asos bo'ldi. Mazkur kompleks ilmiy tadqiqotlar va yangi tadqiqot uslublari YUNESKO va IKOMOS tomonidan ijobiy baholangan. "Shahrisabz" davlat muzey-qo'riqxonasi tarkibidagi Siypantosh qoyatosh suratlari kompleksini tadqiq etishda yuqoridagi uslub katta ilmiy samara berishi mumkin.

Dastlab tadqiqotchi R.Sulaymonov Siypantosh yodgorligini ilmiy muomalaga kiritgan. U yodgorlikni mezolit davriga oid bo'lishi mumkin, deb sanalaydi²⁷. Tadqiqotchining maqolasida mineral bo'yoqlar, oxra, jigar va qizil rangli geometrik rasmlar (xalqa, xoch, romb va chiziqlar), quyoshning ramziy tasviri, yovvoyi buqa va ayol barmog'i izlari esa samoviy e'tiqodni aks ettiradi, deya talqin etiladi. Yodgolikdagi tasvirlar to'liq saqlanmagan, syujetlar qadimiy.

Biz Siypantoshdagi rasmlarning mazmuni, tasviriy va texnik uslubiga asoslanib so'nggi paleolitning 18.000 yilliklari – Madlen davriga oid deb hisoblaymiz²⁸. Tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan ko'plab qoyatosh tasvirlarida insonning chap qo'l panjasi tasviri uchraydi²⁹. Sanaviy jihatdan qo'llar bilan bog'liq bo'lgan chizmalar paleolit, ya'ni qadimgi tosh davridan paydo bo'lgan. Masalan, Fransiyaning Koska g'orida 27000 yillar oldin qo'l rang tasvirda ifodalangan³⁰. Zarautkamar, Sarmishsoy, Bironsoy, Ilonsoy kabi qoyatosh rasmlaridagi tasviriy san'at Homo sapiens – sapiens (aqlli odam)ning ma'naviy tafakkurini aniqlashda muhim ahamiyatga ega³¹.

Siypantosh va Xo'ja Ovul yodgorliklaridagi "qo'l izlari" Homo sapiens – sapiensning badiiy va ijodiy rivojlanishini aks etadigan o'ta muhim yodgorligi hisoblanadi. Ushbu yodgorliklar 2021-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan "Shahrisabz" davlat muzey

²⁶ Памятники наскального искусства Центральной Азии // Материалы Центральноазиатского регионального учебного семинара по наскальным изображениям: Общественное участие, менеджмент, консервация, документация. Тамгалы, Казахстан, 15-24 сентября, 2003 г. – Алматы, 2004. – С. 3. Вафаев Г.А., Иваницкий И.Д., Хужаназаров, В. Домоолега Отчет Тусунсайского археологического отряда Самаркандской области // Архив Института археологических исследований АН РУз. Ф.4. Оп.1. Д.139. – Самарканд, 1986. – С. 40; Хужаназаров М., Кулиговский В., Развадовский А., Станиславский Б. Ўзбекистон-Польша халқаро петроглиф гуруҳининг 1993 йил Навоий вилояти қоятошларидаги суратларни ўрганиш бўйича ҳисоботи // ЎзР ФА Археологик тадқиқотлар институти архиви. Ф.2. Оп.1. Д.128. – Самарканд-Познань. 1993. – С. 6; Хужаназаров М., Развадовский А. Петроглиф гуруҳининг 2002 йилда олиб борган дала ишлари // Археологические исследования в Узбекистане 2002 год. – Тошкент, 2003. – С. 196-202. Анне-София Хиген. Петроглифы Сармишса, Узбекско-норвежский проект по Сармишсаю 2002-2010 гг. Итоговый отчет проекта. – Осло, 2010. – С. 19-29. Шер Я.А. Петроглифы Средней и Центральной Азии. – М., 1980. – С. 174.

²⁷ Достижения и перспективы изучения, сохранения и управления природного и культурного наследия «Сармишса». – Ташкент, 2009. – С. 9.

²⁸ Хушваков Н.О. Вахобова Д.У. Сийпантош ёдгорлиги ва унинг туризм тизимидаги ўрни ҳақида. Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришда тарихий музейларнинг ўрни. Халқаро илмий-амалий конференциясининг мақолалар тўплами. – Шахрисабз. 2021 й. –Б. 124.

²⁹ Мамадиев Б.Б. Тош давридан дараклар ёхуд Хўжа овул минг барака ёдгорлиги битиклари. Роль исторических музеев в развитии туризма в Узбекистане. Международная научно-практическая конференция. – Шахрисабз, 2021. – С. 37.

³⁰ Моррис Ч. Основания теории знаков // Семиотика. – М., 1983. – С. 42

³¹ Сагдуллаев А.С., Эшов Б.Ж ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи I-жилд. 1-китоб. – Тошкент, 2015.

qo‘riqxonasining yangi filiali sifatida faoliyat olib bormoqda³².

O‘zbekiston tarixining urbanizatsiya jarayonlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qadimiy Kesh shahri shakllangan Sangirtepa, Uzunqir va Podayotoqtepa obidalaridagi tadqiqotlar bu joylarning miloddan oldingi davrlarda yuksak mavqeda ekanligini ko‘rsatadi. Qadimshunoslarning fikriga ko‘ra, Qashqadaryoning irmoqlaridan bo‘lgan Sho‘robsoy bo‘yida qad ko‘targan Sangirtepa manzilining ilk shakllanish davri miloddan oldingi IX-VIII asrlarga to‘g‘ri keladi. Sangirtepaning o‘lchamlari: umumiy hududi 3 ga, markaziy tepalikning o‘lchamlari 84x62 m, balandligi 8 m, mudofaa devori to‘g‘ri burchakli, o‘lchami 200x180 m ni tashkil etadi³³.

Tadqiqotchi M.Xasanov 1997-yildan buyon o‘sha paytdagi Amir Temur nomli moddiy madaniyat tarixi muzeyining tashabbusi bilan tashkil etilgan Kitob tumani hududidagi qadimgi arxeologik yodgorliklarni o‘rganish bo‘yicha arxeologik ekspeditsiya tarkibida ishlab, yodgorlikni to‘liq qazib o‘rgangan. Uning tadqiqotlari Sangirtepadagi materiallarni aniqlash radiokarbon sanalash uslubida amalga oshirilgan. Qatlamlar bo‘yicha yoshini eramizdan oldingi 2982 (2982 g. do n.e ± 30 SVR (Gif 12277/SacA10176) yillar bilan belgilaydi³⁴. M.Xasanovning fikricha, Sangirtepa ibodatxona sifatida bunyod etilgan va eramizdan oldingi IV asrlar, ya‘ni Salavkiylar davrining boshlanishigacha o‘z funksiyasini o‘zgartirmagan. Tadqiqotchi bu fikrni arxeologik qazishmalar jarayonida topilgan Antiox I Sotera davrida zarb etilgan dixalka tangalariga asoslanib xulosalagan³⁵.

Podayotoqtepa yodgorligida tadqiqotchi A.Omelchenko ham arxeologik tadqiqotlar olib borgan va topilgan arxeologik ashyolar bugungi kunda “Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasining “Qadimgi Kesh tarixi va madaniyati” ko‘rgazmasidan joy olgan³⁶. Mazkur yodgorlik ham “Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi tarkibiga kiritilgan bo‘lib, kelajakda uni arxeologik parkka aylantirish konsepsiyasi va loyihalari ishlab chiqilmoqda. Arxeologik parkning asosiy yo‘riqnomasida Zardushtiylik ibodatxonasi va mudofaa devorlarni tiklash, hovlisida sayohatchilar uchun tarixiy arxeologik ma‘lumotlar markazi, antik davrdagi me‘morchilik uslubida mehmonxona, maroqli dam olish uchun shart-sharoitlar yaratish va ko‘kalamlashtirish ishlari amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekistonning qadimgi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Sug‘diyona mil.avv. VI-II asrlarda avval ahamoniylarga, so‘ngra makedoniyalik Aleksandr tuzgan saltanatga, uning davomchisi Salavk davlatiga, Yunon-Baqtriyaga tobe

³² “Сармишсой”, “Шахрисабз”, “Термиз” ва “Кўкон” давлат музей-қўриқхоналари фаолиятини ташкил этиш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 30 майдаги 443-сон қарори.

³³ Крашенинникова Н. И. Работы в Китабском и Шахрисябзском районах // АО. – М., 1983. – С. 459.

³⁴ Хасанов М. Проблемы культуры древнего Согда (эпоха раннего железного века и античности). Диссертация на соискании ученой степени доктора исторических наук (DSc). – Ташкент, 2021. – С. 30. Laboratoire de Mesure du Carbone 14 (ARTEMIS) par spectrométrie de masse par accélération (SMA).

³⁵ Рапэн К., Хасанов М. Сакральная архитектура... – Париж-Самарканд, 2013. – С. 43.

³⁶ Омельченко А.В., Мамадиев Б. Раскопки на городище Падаятэк в Китабском районе. – С. 72-75; Омельченко А.В. Культура восточных районов Южного Согда эпохи античности. Автореферат канд. диссертации – Самарканд, 200. – С. 24; Он же. Керамические комплексы эллинистического времени из области Кеш. – С. 137-142.

bo‘lgan. Mil.avv. II-I asrlardan boshlab Sug‘diyona o‘z mustaqilligini tiklashga kirishgan. Uning markaziy va mahalliy tangalari zarb qilina boshlagan. Sug‘diyona Samarqand, Kesh-Nasaf va Buxoro bilan birgalikda konfederativ davlat uyushmasiga aylanib borgan. Qadimgi Kesh vohasining Islom dinigacha bo‘lgan davri tarixi va madaniyatini o‘rganishda arxeologik hududlardan topilgan va “Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondida saqlanayotgan ossuariylarni tadqiq etish juda muhim hisoblanadi.

Ossuariylar, sopoldan yasalgan qutilar bo‘lib, zardushtiylik urf-odati bo‘yicha mayit dafn etiladigan “tobut”dir. Dissertatsiya muallifi ham 2012-yilda Shahrisabzdan uncha uzoq bo‘lmagan Yumaloqtepa yodgorligida olib borilgan arxeologik ekspeditsiya (rahbari N.Xushvaqov) 3 ta yaxshi saqlangan butun ossuariylar, bitta siniq hamda bitta xumda dafn etilgan odam suyaklarini topilgan. Ekspeditsiyada taniqli olim G.Bogomolov ilmiy maslahatchi sifatida ishtirok etdi³⁷.

Ostadonlar eramizning VI-VII asrlariga tegishli bo‘lsa-da, undagi tasvirlar O‘rta Osiyo hududida keng tarqalgan zardushtiylik dini falsafasini aks ettiradi³⁸. Ilk o‘rta asrlardagi Sug‘diyona madaniyatining diniy urf-odatlarini ta’siri Markaziy Osiyo va Xitoyning Turfon vodiysigacha bo‘lgan hududlardan topilgan arxeologik va etnografik materiallarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Yumaloqtepa ostadonlarida kompozitsiya o‘ngdan chapga qarab boshlanib, sug‘diylarning mayitning ruhi va u dunyodagi taqdiri haqidagi falsafiy tassavvuri aks etgan. Tasvirda ikkita sahna mavjud va tasvirlarda sug‘diylarning mayitning u dunyodagi ruhi taqdirini ko‘rsatishga bag‘ishlangan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasining arxeologik qazishmalar va qidiruvlar faoliyati**” deb nomlanadi. Muqanna qal’asi Kesh tarixi va madaniyati mavzusini tadqiq etishda juda muhim hisoblanadi. Bu masalaga qiziqishning ikki jihati bor, bir tomondan Muqanna shaxs sifatida tarixda o‘zining “sirli qiyofasi”, u haqida to‘plangan afsonalar hamda yozma manbalarning ko‘pligi va arablarga qarshi kurash taktikasi, ikkinchi jihatdan uning tog‘da joylashgan qal’a-qarorgohi me’morchiligi haqidagi ma’lumotlar bilan izohlanadi. Muqanna qo‘rg‘onini topishga qaratilgan tadqiqotlarni M.Ye.Masson boshlab bergan. U dastlab Qamashi tumanidagi Katta Langar qishlog‘i Muqanna qal’asi o‘rni bo‘lishi mumkin, degan fikrni olg‘a surgan³⁹. Biroq, M.Massonning ushbu ilmiy farazi tasdiqlanmadi. Akademiklar E.V.Rtveladze va A.S.Sagdullayevlar ham 1970-1980 yillarda izlanishlar olib borgan. Ular ham M.Masson singari Muqanna qo‘rg‘oni Qamashi tumanidagi tog‘larda joylashgan bo‘lishi mumkinligini ilmiy taxmin qilishgan⁴⁰. K.Abdullayev 2010-2012 yillarda Qashqadaryoning Kitob tumanidagi tog‘larda ekspeditsiyalar uyushtirib, Muqanna qo‘rg‘onini topishga harakat qildi. Fransiyalik arxeolog

³⁷ Бердимуродов А.Э., Богомолов Г.И., Хушваков Н.О. Новые находки штампованных ассуариев в окрестностях Шахрисабза.// *Ўзбекистон археологияси*.2012. №2. – С. 2-5.

³⁸ O‘sha asar, o‘sha joyda.

³⁹ Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. – Ташкент. – С. 63.

⁴⁰ Ртвеладзе Э., Сагдуллаев. А. Памятники минувших веков. – Ташкент, 1986.

Y.Karev esa Muqanna qo'rg'onini Shahrizabz tog'laridan izlagan⁴¹. Professor F.Grene qal'a Kitob shahri atroflarida bo'lishi mumkinligini ilmiy taxmin qilgan⁴².

Qo'rg'onning o'rnini aniqlash masalasida mavjud yozma manbalardan biri Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan unda, "... Inchkand-Muqanna fuqarolari yashagan shaharning nomi. So'ng xarob bo'lgan" degan ma'lumot bor⁴³. "Inch" so'zi "tinch" degan ma'noni beradi. Fikrimizcha, aynan Inchkandga Hisor tog'oldi hududida joylashgan Yakkabog' tumanidagi Ishkent qishlog'i to'g'ri keladi. Ishkent qishlog'i Qo'rg'oncha yodgorligiga eng yaqin qishloq bo'lib, yuqoridan yaqqol ko'zga tashlanib turadi⁴⁴. O'rta asrlarda yashagan muarrixlarining Abusaid Gardiziy ("Zayn ul-axbor"), Abu Ali Muhammad Bal'amiy ("Tarjimai tarixi Tabariy"), Abu Rayxon Beruniy ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"), Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy ("Buxoro tarixi"), Ibn al-Asir ("Tarixi al-komil") va Mahmud ibn Valining ("Bahr ul-asror") asarlarida Muqannaning bosh qarorgohi Keshdagi Som (ba'zi manbalarda Siyom) deb atalgan tog'dagi qal'ada joylashgani qayd etilgan⁴⁵.

Som yoki Siyom termini sug'diycha bo'lib, arab geograflari mazkur tog'ni arabchada Hisor deb ataydilar. Sh.Kamoliddinov Shahrizabz tumanining sharqiy qismida joylashgan Hisor tog' tizmalarini "Sinom" deb ataladi, deb hisoblaydi. Mahmud ibn Vali asarida esa Siyom nomli baland tog'lar Nasaf va Chag'oniyon yo'li o'rtasida joylashgan. Bizning fikrimizcha, Sh.Kamoliddinov ta'kidlagan Sinom yoki Mahmud ibn Vali Siyom deb ataydigan tog'lar Kitob-Keshning sharqiy qismidan boshlanib Qamashi tumanidagi Qatovgacha bo'lgan tog' tizmalari atalgan⁴⁶. Shu yerda Qo'rg'oncha nomi bilan ataluvchi yodgorlik mavjud, uning devori 1,70 m balandlikka, eni esa 1,50 m dan 1,80 m o'lchamga ega. Yodgorlik ikkita me'moriy qurilish tizimiga ega, aynan Qo'rg'oncha Ark-a'loning (sitadel) janubidan shimol tomonidagi devorgacha 180 m sharqdan g'arbiy devorgacha esa 276 m masofani tashkil etib, 5 gektarga yaqin hududni egallagan. Me'morchilik inshooti qadimgi davrlardayoq jiddiy zarar ko'rgani, buzib tashlangani yaqqol ko'zga tashlansa-da, uning mudofaa maqsadida qurilgani aniq bilinadi. Qo'rg'oncha qal'asi dengiz sathidan 2900 m balandlikda joylashgan va unga tutash ikkinchi qal'a (shahriston) mudofaa devorini Totor qishlog'igacha davom etgan⁴⁷.

⁴¹ Karev Y. 2002: La politiqued' Abu Muslim dans le Mawara'annah: nouvellesdonnéestextuelles etarchéologique // Der Islam. 79. – P. 1-49.

⁴² Grenet F. 2013. Contribution à l'étude de la révolte de Muqanna' (c. 775-780): traces matérielles, traceshérsiographiques // Islam: identité et alterité. Hommage à Guy Monnot, o.p. // M.A. Amir-Moezzi(ed.). Turnhout. – P. 247-261.

⁴³ Қошғарий М. Туркий сўзлар девони ("Девони луѓотит турк"). III жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. – Тошкент. – Б. 233.

⁴⁴ Абдуллаев К., Хушвақов Н.О. Qala of Muqanna Routes of Search(preliminary report)/ Istanbul univirsitesi Turkiat arastirmalari enstitusu/ ART SANAT. 2014/2/ /. (турк тилида). Абдуллаев К., Хушвақов Н. К вопросу крепости Муканны. Вестник древней истории. – М., 2016. – С. 69-98.

⁴⁵ Абу Са'ид Гардизи. 1991: Украшение известий. Зайн ал-Ахбар / Пер. А.К.Арендса. – Ташкент: Наршахи Мухаммад, 1897: История Бухары / Пер. с перс. Н.Лыкошина; под ред. В.В.Бартольда. – Ташкент. Ибн Хордадбех, 1986: Книга путей и стран / Пер. Н.М.Валихановой. Баку. Tabari 1892: Annales quos scripsit Abu Djafar Mohammed ibn Djarir at Tabari / M.J.De Goeje (ed.). Lugduni Batavorum.

⁴⁶ Хушвақов Н.О. Қўрғонча ҳақида. "Мозийдан садо" журнали. 3-сон. 2013 йил. – Б. 16-18.

⁴⁷ O'sha asar o'sha joyda.

Qatovdagi qal'a – Qo'rg'oncha bir-biriga tutash ikkita tosh qo'rg'onidan iborat va geografik jihatdan harbiy mudofaa uchun juda qulay muhitda joylashgan. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida arab qo'shini sardori kekxa va tajribali Said Haroshiy Muqanna qal'asini ishg'ol etishda ikki tomondan o'rab olish harbiy taktikasini qo'llashi katta samara berganligi haqida muhim ma'lumot mavjud. Movarounnahrning yirik siyosiy va madaniy markazi – Samarqandni ishg'ol qilib Taxtiqoracha (aslida Taxti Qorachar Noyon) dovonidan o'tib kelgan arablar dastlab Kesh viloyatining markaziy shahrini (Kesh-Kitob) vayron etib, so'ngra Qamashi tumanidagi Qatovda joylashgan Qo'rg'onchadagi Muqanna askarlarini uzoq muddat qamal qilib, harbiy diplomatiya natijasida qal'ani butunlay vayron etishgan. Narshaxiy o'zining “Buxoro tarixi” asarida aynan Qo'rg'oncha yodgorligi o'rnida joylashgan Muqanna qal'asini ishg'ol etishda arablar sardori kekxa va tajribali Said Xarashiyning ikki tomondan o'rab olish harbiy taktikasini qo'llashi hamda vayron etishi haqidagi ma'lumotlar Qo'rg'onchadagi tog' me'morchiligi qurilish materiallari va arxeologik materiallar asosida isbotlandi.

Xullas, Qamashi tumanidagi Qo'rg'oncha yodgorligi Muqanna joylashgan harbiy mudofaa qo'rg'oni bo'lib, yozma manbalarda keltirilganidek, 14 yilda emas, balki 2 yilda qurilgan va arablar ishg'olidan so'ng vayron etilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Shahrisabz” davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi san'atga oid terrakotalar** tahliliga bag'ishlangan bo'lib, bu bobning birinchi paragrafi **“Teatr san'atiga oid eksponatlar”** deb nomlanadi.

O'rta asrlarga oid Shulluktepa yodgorligi tarixchilar tomonidan Nasaf shahri deb talqin etiladi va qadimgi Yerqo'rg'on yodgorligidan V-VI asrlarda ko'chib o'tgan⁴⁸. Nasaf shahrida ko'plab mahalla, mavze' va ko'chalar mavjud bo'lgan va As-Sam'oniyning “Al-Ansob” asarida ikkita mahalla, bitta mavze' va uchta ko'channing nomi keltirilgan. Mahallalarning biri Jo'ybor, Boyon (yoki Poyon) deb atalgan. “Al-Ansob”da: “Jo'ybor – Nasafdagi mahalla”⁴⁹ deyiladi. Nasaf shahrining yana bir mahalla nomi “Boyon” (Poyon) bo'lib, unda masjid bo'lgan. Bu mahalla haqida As-Sam'oniyning “Al-Boyon (Poyon) Nasafning ma'lum va mashhur mahallalaridan. Bu mahallada Imom al-Buxoriy bo'lganlar. Men ham ko'p bo'ldim. Imom al-Buxoriy namoz o'qigan masjidida namoz o'qidim”⁵⁰, deb yozadi. Xaloyiq to'planadigan mavze' esa “Javbaq” deb atalgan⁵¹.

⁴⁸ Сулаймонов Р.Х.: Нахшаб – унутилган тамаддун сирлари. – Тошкент: “Маънавият”, 2004. Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. – Ташкент, 1973; Кабанов С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековья. – Ташкент: O'sha muallif. Культура сельских поселений Южного Согда III-VI вв. (По материалам исследований в зоне Чимкурганского водохранилища). – Ташкент, 1981; Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XII вв. – Ташкент, 1984; Туребеков М. Оборонительные сооружения древних поселений и городов Согда (VII-VI вв. до н.э., VII в.н.э.) – Нукус: Каракалпакстан, 1990; Сагдуллаев А.С. Оседлыеобласти юга Средней Азии в эпоху раннего железа (генезис культуры и социально – экономическая динамика): Автореф. дис... док. Ист. наук. – М., 1989. Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). – Т.: Фан, 1984; Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. – Т.: 2000. Столярова Н.П. Средневековая керамика Кашкадарьинского оазиса XI- нач. XIII вв. – Т., 1985. Шахрисабз. Наследия тысячелетий. Отв. Ред. Э.В.Ртвеладзе и А.С.Сагдуллаев. Т.: 2002; Шахрисабз. Дресвянская Г.Я., Лунина С.Б., Султанов Х.Т., Усманова З.И. – Ташкент, 1993; Сулаймонов Р.Х.: Нахшаб – унутилган тамаддун сирлари. – Тошкент: “Маънавият”, 2004.

⁴⁹ Ас-Самъоний. Насабнома (ал-Ансоб). – “Бухоро”. – Б. 231.

⁵⁰ O'sha joyda. – В. 227.

⁵¹ O'sha joyda. – В. 227.

Yozma manbalarda Nasafdagi uchta ko‘chaning nomi ma’lum, ulardan biri Soig‘ning ma’nosi – Zargar. Sam’oniy bu so‘zni arabcha ekani va ko‘chada Zargar hunarmandlar yashagani haqida ma’lumotlar bergan. Sharg‘iyon ko‘chasini esa, Buxoroda Sharg‘ nomli qishloq mavjudligi va ko‘chada yashayotgan aholi aynan shu qishloqdan ko‘chib kelishgan, deb taxmin qilgan⁵². Yozma manbalarda Juvik ko‘chasining so‘z ma’nosi uchramaydi. Nasafda ilm ahli uchun imorat ham mavjud bo‘lgan. Bu imorat “Qallos” deb atalgan. As-Sam’oniy o‘z asarida “Nasafda ilm ahli uchun taniqli uy bor, u Al-Qallos deb ataladi”, deb yozadi⁵³. Ko‘rinishidan bu imorat madrasa bo‘lsa kerak. Yozma manbalardan ko‘rinib turibdiki, Nasaf ilk o‘rta asrlar rivojlangan shahar mavqeda bo‘lgan.

Shulluktepa yodgorligidan o‘ta noyob sopol plitka (plaketka) “Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonada fondida KP-1/89 inventar raqami bilan saqlanmoqda. Teatr aktyorlari niqobi aks etgan arxeologik topilma nafaqat Sug‘d, balki, qadimgi O‘zbekiston tarixi va madaniyati uchun ahamiyatli bo‘lib, mintaqa hududida teatr san’atini shakllanishi va rivojlanishi masalasini aniq yoritib beradi.

Plitka juda yupqa va kvadrat shakldagi plastinka tarzida yasalgan. Uning yuza qismida 9 ta grek-rim uslubidagi teatr niqoblari bosma tarzda ifodalangan. Niqoblarning ko‘pchiligi komik xarakterga ega, bitta niqob esa tragedik obraz sifatida tasvirlangan. Bu plaketka apotropik va xitonik tumor sifatida ishlatilgan, u Dionis va Dimetra kabi ilohiy diniy ahamiyatga ega. Naxshab hududidan topilgan mazkur arxeologik topilma juda muhim, u qadimgi Sug‘diyona hududidagi madaniy aloqalarni yorqin misoli bo‘lib, teatr san’ati antik davrlarda mavjudligini va teatr san’atining taraqqiyotini dalillaydi.

Plitkani yuqorisida joylashgan niqobli aktyorlarning har biri alohida tasvirlangan. Niqob taqqan aktyor keng peshonali, sochlari qulog‘i ortidan yon tomoniga tushib turibdi. Burni kichkina, ko‘zlari to‘g‘riga qaragan, labi yumuq, ammo tabassumi sezilarli. Yuzining pastki qismi qalin soqoli bilan qoplangan va soqoli o‘ralgan. Ko‘rinishidan bu niqobdagi aktyor qariya, bunday obrazlar Bospor koroplastikalarida keng uchraydi. Birinchi qatordagi uchta niqobli aktyorlar yonma-yon joylashgan va satirik tarzda ifodalangan. Oxirgisidagi chap tomondagi shaxs yon tomonidan tasvirlangan, sochlari peshonasiga tushgan, ko‘zi chuqur va ko‘zqorachig‘i dumaloq va markazda joylashgan. To‘g‘ri qirra burun, burnining uchi pastga qaragan, iyagi dumaloqsimon, salgina chiqqan. Uning uzun sochlari pastga tushgan, yuqoridagi tasvir ayol kishi bo‘lishi mumkin. Keyingi niqobdagi obraz boshqalari bilan birlashib turibdi va old tomonidan ifodalangan.

Ko‘pchilikka ma’lumki, og‘zi katta niqobli aktyorlar dastlab Grek amfiteatrlarida qo‘llanilgan, niqobdagi katta og‘izlar ochiq maydondagi amfiteatrlarda aktyor tovushini uzoqqa yetib borishida karnay (rupor) vositasini o‘ynagan. Eramizdan oldingi VI-IV asrlarda tragediya va komediyalarda shunday niqoblar tayyorlangan. Og‘izning pastga qarab egilishi qayg‘uni, og‘izning yuqoriga qarab ko‘tarilishi esa

⁵² O‘sha joyda. – B. 230.

⁵³ O‘sha joyda. – B. 244.

kulgili komediyani bildiradi⁵⁴. Shulluktepadagi plitkada aynan yirik og‘izli niqob ifodalangan. Ammo, eramizdan oldingi III asrning boshlarida niqoblarning tasviri o‘zgaradi. Bunday o‘zgarish Menandrning “yangi komediyalari” bilan bog‘lanadi va eramizdan oldingi III-I asrlardagi niqoblarda “katta og‘izlik” yo‘qolib, aktyorlarning natural og‘zi urf bo‘la boshladi⁵⁵.

Shulluktepa plitkasidagi niqoblarda 8 ta obraz aynan shu tarzda ifodalangan. Shunga asosan mazkur niqoblar ifodalangan plitka sanasini belgilashda pastki chegara sifatida eramizdan oldingi III-I asrlar asos qilib olinishi mumkin. Bu niqoblarga o‘xshash tasvirlar shimoliy Qora dengiz atrofidagi arxeologik yodgorliklarida uchraydi⁵⁶.

Arablar tomonidan O‘rta Osiyoning bosib olinishi va islom dinining kirib kelishi natijasida ko‘plab ibodatxonalar va kohinlarga tazyiq o‘tkazilishiga qaramasdan qadimiy urf-odatlar va ko‘chalarda ommaviy tarzda namoyish uslubida o‘tkaziladigan ibtidoiy bayramlarni bekor qila olmadi. Bu urf-odatlar IX-XI asrlarda xam keng tarzda o‘tkazilgan. Masalan, Navro‘z bayrami ommaviy tarzda bir-birini mehmon qilish va turli xil tortiqlar berish uslubida davom etib kelgan. Yozma manbalarda Bag‘dod xalifasi saroyida ham niqoblar bilan sahna ko‘rinish o‘tkazilgani haqida ma‘lumotlar mavjud⁵⁷.

Fikrimizcha, niqob tasvirlangan plitka tumor vazifasini bajarganligi haqiqatga yaqin. Antik davrdagi apotropeya (qadim grek termini – “apotropayona” – “ko‘z tegmasligi uchun tasvir”) g‘oyasiga ko‘ra, tumorlarda qo‘rqinchli yovuz obrazlar karakatura tarzida tasvirlanib, yovuz ruhlarni kulishiga sabab bo‘ladi va ko‘z tegishidan saqlaydi. Masalan, Meduza Gorgona sochlari ilondek obraz apotropeyaning yorqin dalili hisoblanadi⁵⁸. Bu obraz bilan antik davr taqinchoqlari, niqob-tumorlar, idishlar, imoratlar, qalqonlar va tangalar bezatilgan. Fikrimizcha, aynan shu maqsadda niqob – plaketkadagi obrazlar tasvirlanib, u yomon ko‘zlardan saqlash uchun tumor sifatida foydalanilgan.

III bobning ikkinchi paragrafi **“San‘at buyumlari, terrakotalar, ossuariylar”**ga bag‘ishlangan. Muzei fondlarining noyob eksponatlari sifatidan saqlanayotgan, O‘zbekistonning uzoq tarixidan dalolat beruvchi sopol plitkalar, ostadonlar hamda terrakotalarda echki yoki qo‘chqor tasvirlari ko‘plab uchraydi. Echki tasviri tasodifiy hodisa emas, balki qadimgi Sharq va Osiyo xalqlarining falsafiy mafkurasidan kelib chiqqan.

Eksponatlar orasida Alakuylak (Yakkabog‘) terrakotasi qiziqarli bo‘lib, haykalcha-terrakota yupqa, qizg‘ish-jigar rang loydan yasalgan, cho‘zinchoq, yuqorisida to‘g‘riburchakli, tor ark tasvirlangan, o‘lchamlari 15x6 sm ni tashkil

⁵⁴ Кобылина М.М. Театр, актеры, музыкальные инструменты // Археология СССР. Античные государства Северного Причерноморья. – М.: Наука, 1984. – С. 219-220.

⁵⁵ Денисова В.И. Коропластика Боспора (по материалам Тиритаки, Мирмекия, Илурата и сельской усадьбы). – Ленинград, изд-во Наука, Ленинградское отделение, 1981. – С. 172.

⁵⁶ Русяева А.С. Античные терракоты Северо-Западного Причерноморья (VI-I вв. до н.э.). – Киев: изд-во Наукова Думка, 1982. – С. 166.

⁵⁷ Мец Адам Мусульманский Ренессанс. – М.: Наука, 1966.

⁵⁸ Вейс Герман. История культуры народов мира. Истоки Древняя Греция. европейской цивилизации. –М.: изд-во Эксмо, 2005. – С. 44.

etadi. Terrakotaning orti silliq, yuzasi esa qolip shaklida, tasmasimon boʻrtmali ravoq ichida zooantropomorf shaxs aks etgan. Uning boshi chap tomonga yonbosh boʻlib qarab turibdi. Boshida yirik echki shox oʻrnatilgan. Shox juda realistik, chiziqalar aniq va fakturasi juda tiniq uslubda yaratilgan. Shoxning pastida yirik dumaloq toj aniq bilinadi, u zigzak, uchburchak tishi peshonasiga tushib turibdi. Yuzi biroz xira, koʻzi shaklan bodomsimon, qorachigʻi aniq va soch oʻrimi yonga tushgan. Yuz qismi uzunchoq, echkining uzun tumshugʻiga oʻxshaydi. Uzun soqoli yelkasigacha tushgan, oʻng tomonidan koʻkragi ustiga ham soch oʻrimi tushib turibdi.

Shaxs uzun koʻylak kiygan, yenglari uzun va yoqasi yoʻq. Kiyim yarim tanasini oʻrab turibdi. Oʻng qoʻlida nomaʼlum buyum mavjud. Koʻkragi ustida tasmalar bilan bogʻlangan apezak-medalyon mavjud. Badanning pastki qismida toʻrt qatlamli belbogʻ va yubkasimon kiyim kiygan. Yubkada tasmasimon bezaklar mavjud.

Shaxsning oʻng qoʻli koʻkrak darajasida koʻtarilgan, qoʻlida qilich mavjud, qilichning uchlari oʻtkir va yuqoriga qarab qayrilgan. Bilagida qalin bilakuzuk va chap qoʻli bilan qalqonga suyanagan. Qaddi noodatiy, oyoqlari keng tarzda, oʻng oyogʻiga suyanib chapi esa bir oz koʻtarilgan va qalqon bilan birlashib ketgan. Shaxsning oʻng yelkasi ortida yung oʻralgan nayza va yunglar shamolda hilpirab turganday koʻrinadi. Bunday ramzlar Sugʻdiyona terrakotalarida mavjud va mazmun jihatdan ilohiy shaxsligidan dalolat beradi.

Mazkur terrakota yoki aniqroq qilib aytsak, shunday shaklga ega qirralari tasmasimon tarzda burtib chiqqan plaketkalar Sugʻdiyona hududidan topilgan koʻplab terrakotalarga oʻxshash⁵⁹. Ammo, Sugʻdiyona hududidagi terrakotalarini batafsil tadqiq etgan V.A.Meshkeris asarlarida medalyon-apezaklisi yoʻq. Sosoniylar davri madaniyatida medalyonli terrakotalar, koʻkrak bezaklari va apezaklar uchrashini hisobga olsak, Sugʻdiyona davridagi medalyon yoki apezakni aynan sosoniylar madaniyat taʼsiri deb talqin etish mumkin. Masalan, Nasaf tarixiy-madaniy hududida joylashgan Shortepa va Yerqoʻrgʻon yodgorliklari hududidan topilgan terrakotalarning kiyimlari, soch turmagi va bosh kiyimlarida shunday madaniy taʼsir yaqqol seziladi⁶⁰.

Alakuylak terrakotasini yasashda kulol Buyuk Shopur (309-379 y.y) qiyofasidan foydalangan boʻlishi ham mumkin. Bu holat terrakotani eramizning IV-V asrlar bilan sanalash imkonini beradi. Funktsional jihatdan terrakota tumor sifatida taqib yurilgan. Mazkur terrakota va unda tasvirlangan shaxsni tarixiy talqini juda qiziqarli. Aynan koʻkragiga medalʼon taqilgan terrakota hozircha Sugʻdiyona yagona, ammo Shimoliy Qozogʻistondagi Verxne-Berezov xazinasida orasida echki boshi bilan tasvirlangan antropomorf shaxs qiyofasi uchraydi va uni tadqiqotchilar Xorazm madaniyati sifatida talqin etadilar⁶¹. Bu tasvirni S.P.Tolstov "echki boshli terrakotalar"dagi Siyovush obrazi deb hisoblaydi⁶².

⁵⁹ Meshkeris V.A. Согдийская терракота. – Душанбе: Дониш, 1989. – С. 76.

⁶⁰ Сулайманов Р.Х. Древний Нахшеб. – Ташкент, 2000. – С. 236.

⁶¹ Даркевич В.П. Художественный металл Востока VIII-XIII вв. – М.: Наука.1976. – С. 46.

⁶² Толстов С.П. Древней Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М., 1948. – С. 46.

S.Kabanovning Yakkabog‘dan topgan plitkasi ham Xorazm terrakotalariga juda o‘xshash va S.P.Tolstovning fikrini tasdiqlashi mumkin⁶³. Unda ham qirg‘oqlari tasmaimon ravoq mavjud. Ravoq ichida zooantromorfik shaxs ifodalangan, uning ham chap qo‘li ko‘kragigacha ko‘tarilgan, qo‘l panjalari esa ochiq. O‘ng qo‘lida jang quroli – bulava turibdi. Uning qiyofasi ham noodatiy, cho‘ziq va uchburchak shaklda va qiyofasi hayvonga o‘xshaydi. Burni odamnikidek, ko‘zlari dumaloq va qorachiqlari va boshidagi “echki shohi” aniq bilinadi. Alakuylakdan topilgan sopol terrakota ham Xorazm xazinasi orasidagi mis idishda tasvirlangan shaxs ham qadimda hosildorlik farishtasi yoki xudosiga sig‘inishni ifodalagan va zardushtiylikdagi qayta tug‘ilish (reinkarnatsiya) falsafasiga asoslangan. Masalan, Yumaloqtepadan topilgan ostadonda ham echki obrazi hosildorlik yoki badavlatlik timsoli sifatida tasvirlangan.

O‘zbekiston tarixining eng qadimgi davrlarda tog‘ echkisiga ov qilish yoki echkildan iborat chorvalar turli xil urf-odatlarda muhim rol o‘ynagan va ko‘pincha genderligiga e‘tibor berilgan. Echkilarning urishqoqligi erkaklarga qiyoslangan bo‘lsa, urg‘ochisi onalik va ko‘payish mazmunini ifodalagan. Terrakotalarda ifodalangan echkisimon qiyofali shaxslar “Echki kulti” – antropomorf qiyofalarni yaratishga olib kelgan. Alakuylak terrakotasida ham qadimiy falsafiy qarash – mahalliy hosildorlik ramzi ifodalangan. Masalan, qadimiy Mesopotamiyada hayvonlar haqidagi falsafiy qarashlar afsonaviy obrazlar yaralishiga olib kelgan edi. Shumer, Akkad va Vavilonda ham echki muqaddas hayvon hisoblanib, Marduk va Nenner-hayvonlar homiysidan dehqonchilik, kanal, ariqlar va chorvachilik homiysi darajasigacha o‘tib o‘tgan. Qadimiy Vavilondagi ilk Kesit san‘atida Ammar xudosi inson qiyofasida qiyshiq hassali, oyog‘i esa tog‘ echkisi ustida tasvirlangan⁶⁴.

Umuman olganda, bronza davridan boshlab Sharqning ko‘plab xalqlarida insonning hayvonlar ustiga yoki yelkasiga minib turish syujetlari uchraydi. Bronza davriga oid O‘rta Osiyo, Oltoy va Sibir hududlaridagi qoyatosh suratlarida antropomorf shaxslar turli xil hayvonlar ustiga o‘tirgani va ko‘pincha bu hayvonlar echkiga o‘xshashligi tadqiqotchilar tomonidan e‘tirof etilgan. Xuddi shunday qoyatosh suratlarini Nurota tumanidagi Sarmishsoy va Qubatog‘dan ham topilgan⁶⁵. Sug‘diyondan topilgan ostadonlar, plaketka va terrakotalardagi o‘tirgan holda yoki qo‘lida qurol ifodalangan tasvirlarni bir-biriga o‘xshashligi tasodifiy emas. Ular Bar-Siyovush timsolidir⁶⁶.

Xullas, Alakuylak terrakotasida ham Siyovush timsoli aks etgan. Uni tumor qilib taqib yurgan odam osmondagi qaysidir yulduzni o‘zining homiysi yoki himoyachisi deb hisoblagan. Plaketkadagi olov shu‘lasi ham tasvirlanganligi bu shaxsni ilohiy obraz ekanini isbotlaydi va mazkur terrakota tumor sifatida

⁶³ Кabanов С.К. Две терракоты из долины Кашкадарьи. // ИМКУ, вып. 2. – Ташкент, 1962. – С. 55.

⁶⁴ Gray Louis H. The foundations of the Iranian Religions. Being a series of the RatanbaiKatrak Lectures delivered at Oxford. Bombay: Kitab Mahal, 1925. – С. 125.

⁶⁵ Khujanazarov M. Petroglyphs of Uzbekistan // Petroglyphs of Central Asia. – Samarkand, 2001. – P. 80-121.

⁶⁶ Пугаченкова Г.А. Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана. – Ташкент: Изд-во худ. лит-ры. 1960. – С. 62.

taqib yurilgan. Tumor esa oila farovonligini ta'minlashga "yordam beradigan" hosildorlik ma'budlaridir. Terrakotadagi shaxsning qo'lidagi quroli zardushtiylik dinidagi yovuzlik ma'budi Angro Manedan himoya qilish qurolidir.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Maqom san'atining kelib chiqishi va manbalarda aks etishi**" deb nomlanadi va uning birinchi paragrafi "**Maqom san'ati yozma va arxeologik manbalarda**" deb nomlanadi.

Musiqqa madaniyatining rivojlanishini aniqlashda yozma manbalar bilan bir qatorda arxeologik topilmalar ham katta yordam beradi. Qadimgi Vavilon amfiteatrida ijro etilgan musiqqa madaniyati teatr san'ati bilan birgalikda rivojlanganini yaqqol isboti bo'lishi mumkin⁶⁷. O'rta Osiyoda qadimgi davrlardan urf bo'lgan musiqqa asboblari-uzun kifara, lyutnya, siriks, avlos, naylar keyinchalik greklar tomonidan ham keng qo'llanilgani ko'plab tadqiqotchilar tomonidan qayd etiladi⁶⁸.

Tadqiqotchi I.M.Vizgo skiflarning tanburga o'xshash musiqqa asbobini greklarning pandura musiqqa asbobi bilan solishtirib, tanburni grek madaniyatiga ijobiy ta'sirini isbotlab bergan⁶⁹. Qadimgi Parfiya hududidan topilgan kalta lyutnya antik davr arxeologik materiallari, balki ilk o'rta asrlarda ham keng uchraydi. Mutaxassislar E.A.Barsegyan va T.S.Vizgolar kalta lyutnya Borbad chalgan cholg'u asbobi deb hisoblaydilar⁷⁰. Bu musiqqa asbobi sharqiy ellinistik an'anaviy madaniyatiga oid va Tilla tepa yodgorligidan ham o'xshash materiallar topilgan⁷¹.

Xorazmdagi Qo'yqirilgan qal'a yodgorligidan topilgan kifara chalayotgan ayol, Baqtriya hududidagi Taxti-Sangindan topilgan bronzadan yasalgan Silena-Marsiya, Eski Termiz va Shahri-Bonudan topilgan musiqachilar haykalchalari va Ayritom frizi⁷² Maqomni ijro etishda foydalanilgan musiqqa chog'u asboblariga juda o'xshash. Bu holatlar Maqom san'ati antik davrning oxiridan boshlab shakllana boshlagan, deb xulosa berishga asos bo'lishi mumkin.

Tadqiqotchi V.N.Pilipko Turkmanistondagi Gaur qal'a yodgorligidan ham ko'plab "Musiqachi ayollar" aks etgan terrakotalarni nashr etgan⁷³. Mazkur terrakotalar orasida ikki torli dumaloq qoringa ega lyutnya Sug'diyona hududidagi 3-4 torli musiqqa asboblariga juda o'xshash. Umuman olganda, bunday musiqqa asboblari aks etgan haykalchalar Parfiya, Sug'diyona va Baqtriya hududida keng tarqalishi musiqqa san'atida umumiylik mavjudligi bildiradi. Qadimiy Kesh qo'rg'oni Podayotoq va Saroytepa yodgorliklari (Kitob tumani) dan topilgan

⁶⁷ Кошеленко Г.А. Культура Парфии. – М., 1966. – С. 155.

⁶⁸ Массон, Пугаченкова. К проблеме изучения искусства Северной Парфии и Северной Бактрии // ОНУ, 1964. – №6. – С. 6. Пилипко В.Н., Кошеленко Г.А. Северная Парфия // Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. – М., 1985. – С. 224. Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. Исторические очерки. – М., 1980. – С. 31.

⁶⁹ Вызго-Иванова И.М. К проблеме генезиса и исторических взаимодействий музыкальных культур народов Евразии // Исторические взаимосвязи музыкальных культур. СПб. науч. тр. – СПб., 1992. – С. 53.

⁷⁰ Барсегян Э.А. Лютия Борада и ее аналогия в музыкальном инструментарии древних народов // Борбад и художественные традиции народов Центральной и Передней Азии. История и современность. Тез.докл. Душанбе.1990: Вызго Т.С. На чем играл Борбад. Шу жойда. – С. 56-57.

⁷¹ Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. О «золоте безымянных царей» из Тилля-тепе (К проблеме стиля и связей) // Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. – Ташкент, 1986.

⁷² Мешкерис В.А. К изучению музыкальной культуры восточной Парфии (По археологическим данным). 1997. 4d89b982c2252247052d96ec76ca17ec91b78e9

⁷³ Пилипко В.Н. Терракотовые статуэтки музыкантов из Мерва // ВДИ.1969. – №2. – С. 53-54.

“musiqachi ayollar” haykalchalar esa musiqa san’ati eramizdan avvalgi VIII-VII asrlardan boshlanganini ko‘rsatadi.

Sug‘dga qarashli Yumaloqtepa ostadonlarida ham to‘rtta musiqachilar tasviri mavjud. Unda bashang kiyingan aslzoda ayol arfa chalayotgani, atrofida bir guruh musiqachilar tasvirlangan. Bu ossuariydagi suratlar nihoyatda jonli, haqqoniy tarzda ifodalanishi talantli musavvir tomonidan chizilganligini ko‘rsatadi⁷⁴.

Musiqa bilan albatta qo‘shiqchilik ijro san’ati hamroh bo‘lgan. Tan imperiyasi davrida Keshdan 727-yilda, Maymurg‘dan 729-yilda, Samarqanddan 713 va 727-yillarda Xitoyga yosh yigit va qiz raqqosalar tashrif buyurgani yozma manbalarda uchraydi. Ular qirmizi ko‘ylak, qizg‘ish teridan kovush kiygan holda raqs ijro etgani, raqqosalarning ijrosi maxsus sahnalashtirilgani va raqslarning ikki turi haqida yoziladi. Birinchi turga raqslar nozik gavda va qo‘l barmoqlari harakatiga alohida e‘tibor beriladigan harakatlar orqali nafis ijro etilsa, ikkinchi tur raqslar esa sho‘x-shodon, shiddatli va akrobatik usullarda ijro etilgan⁷⁵.

O‘zbekiston tarixining antik va ilk o‘rta asrlar davrida Sug‘diyona, Baqtriya-Tohariston, Choch, Ustrushona, Xorazm va Farg‘onadan Sharqiy Turkiston, Xitoy va Uzoq Sharqqa o‘ziga xos noyob musiqa madaniyatini “eksport” qilinishi, Osiyo mamlakatlarining musiqa, qo‘shiqchilik va raqs san’atining rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani arxeologik tadqiqotlarda tobora keng namoyon bo‘lmoqda. Masalan, Turfon vohasidan topilgan arxeologik topilma – sopol parchasidagi bo‘rtma rasmda arfa chalayotgan ayol tasvirlangan. Yana bir bo‘rtma suratda kifara (besh torli musiqa asbob bo‘lib u hozirgi zamon gitaralari va changlariga yaqin turgan) chalayotgan musiqachi tasvirlangan. Bu topilmalar miloddan avvalgi IV-III asrlarga oiddir⁷⁶.

Antik shahar hunarmandchilik turlari orasida sozgarlik ham ravnaq topgani va ijro amaliyotida qo‘llanilgan cholg‘ular haqida yozma ma’lumotlar mavjud. Xususan, Abu Nasr Farobiyning “Kitab-ul musiqa al-kabir” (“Katta musiqa kitobi”), Abu Abdulloh Xorazmiyning “Mafatix ul-ulum” (“Ilmlarning kalitlari”) kabi ilmiy asarlarida tanbur, shohrud, chang, ud, barbad, anqo, sanj, rubob, rud, nay, mizmor, surnay, juljul, jom, bong, mi’zafa, daf, tabl kabi ko‘plab sozlar tasnif etilganini ko‘ramiz⁷⁷.

Yuqorida tilga olingan qadimiy va ilk o‘rta asrlarga oid arxeologik osori-atiqalar orasida ud cholg‘u asbobi ko‘proq uchraydi. Ilk o‘rta asrlarga kelib mukammallik darajasiga yetgan “ud” cholg‘usi o‘z imkoniyati bilan tovush hamrohligida ijro etiladigan qo‘shiqchilarga “jon bag‘ishlagan”⁷⁸.

⁷⁴ Krašennikova N.I. Deux ossuaires a décor moulé trouvés aux environs du village de Sivaz, district de Kitab, Sogdiane Méridionale. // *Studia Iranica*. Tom 22- 1993- fascicule 1.

⁷⁵ Мешкерис В.А. Географические факторы в истории древней среднеазиатской культуры, получившей расцвет в эпоху Борбада (середина 1 тыс. лет до н.э.-VIII век в.н.э) // *Борбад и художественные традиции народов Центральной Азии: история и современность*. (Материалы международного симпозиума). – Душанбе, 1990. – С. 34.

⁷⁶ Вызго Т.С. Ренессансные тенденции в Среднеазиатской науке о музыке // *художественная культура Средней Азии*. – Ташкент, 1983. – С. 56.

⁷⁷ Назаров А. Фаробий ва Ибн Сино мусикий ритмика хусусида: мумтоз ийкоъ назарияси. – Тошкент: Ф. Фулом нашриёти, 1995. – Б. 31. D’Erlanger B.R. La musique arabe. I, II, III. – Paris: Librairie Orientaliste PaulnYeuthner, 1935. – P. 459.

⁷⁸ Назаров А. Фаробий ва Ибн Сино мусикий ритмика хусусида: мумтоз ийкоъ назарияси. – Б. 10.

Keshdan topilgan haykalchalarda ham to‘rt torli ud tasvirlangan. Al Kindiyning ma‘lumotiga qaraganda IX asrdan boshlab udga beshinchi tor tortilgan. Ud torlari avval ipakdan, IX asrdan boshlab esa hayvon ichagidan tayyorlangan⁷⁹.

Bag‘dodda XIII asrda yashagan musiqa nazariyotchisi Safi ad-Dinning “Ritmik doiralar to‘g‘risida kitob” (“Kitob al-alvar”) asarida ud tasviri mavjud⁸⁰. Berlin muzeyida saqlanayotgan X asrga oid kumush medalyonda ud chalayotgan Bag‘dod xalifasi tasviri bor. Xuddi shu muzeyda XI asrga oid kumush likopcha ham saqlanadi va unga ham ud chalayotgan shahzoda tasviri tushirilgan. Bu tasvirlarda aks ettirilgan udlar o‘zlarining ko‘rinishlari va tuzilishlari bilan hozirgi zamon udlaridan deyarli farq qilmaydi. O‘rta asrlar musiqa madaniyati va ilmi 1219-1220-yillarda Osiyoning katta qismi Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar tomonidan istilo qilinishi bilan tanazzulga uchraganligi shubhasizdir.

Musiqa madaniyatining keyingi qayta jonlanishi, qadimiy an‘analarning ro‘yobga chiqishi sohibqiron Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida yuksak bosqichlarga ko‘tarildi. Turlicha etnik guruhlarining tili, turlicha an‘analar va madaniyatlarning bir davlat hududida jamlanib rivojlanishi, bir-birlarini to‘ldirishi musiqa, maqom va ijro san‘atini boyitishiga zamin yaratdi.

Musiqa san‘ati Amir Temurning poytaxti Samarqandda, Shohruh, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Bobur podsholiklari davrida Hirot, Balx, Kobul kabi yirik shaharlarda keng rivojlanib yangi musiqa maktablari shakllandi. Amir Temur saroyida mashhur musiqachi Xoja Abdulqodir Marog‘iy (1340-1435) yashagan va ijod qilgan. Marog‘iy Amir Temurning taklifi bilan Bag‘doddan Samarqandga ko‘chib kelgan. Samarqandda unga musiqa ilmi bilan chuqur shug‘ullanishga barcha sharoit va imkoniyatlar yaratib berilgan. Shu bois bu iste‘dodli musiqachi va musiqashunos olim uzoq yillar davomida avval Amir Temur, keyinroq esa Mirzo Ulug‘bek va Shohruh saroylarida xizmat qilgan va 200 dan ortiq asarlar yaratgan. Bu asarlar jumlasiga “Chahor zarb”, “Zarb al-fath”, “Mayatayn”, “Tasnif-i Xoja Abdulqodir”, “Amal-i Tarona”, “Amal-i Guliston”, “Amal-i Bo‘ston”, “Amal-i Xoriston” kabilar kiradi. Xoja Abdulqodir Marog‘iy musiqa nazariyasiga oid “Gina va alhon”, “Maqosid al-alhon”, “Javome’ al-alhon”, “Sharh al-alhon” va boshqa ko‘plab ilmiy asarlari mavjud⁸¹. Mana shu davrda yashab o‘tgan Zaynulobiddin Husayniy “Qonun-i ilmi va amali musiqi” asarini yozgan va ilk marotaba ushbu asarda dutor to‘g‘risida keng ma‘lumot berilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida mashhur “Shashmaqom” va “Duvozdahmaqom” kabi yirik musiqiy turkumlarning shakllanishi jarayoni boshlandi va bu turkumlar keyinchalik maqomning Farg‘ona-Toshkent, Samarqand va Xorazm yo‘llarining shakllanishiga zamin yaratdi. Shu asnoda dunyoga kelgan maqom yo‘llari mana qariyb olti yuz yildirki mumtoz o‘zbek qo‘shiqchilik va musiqa san‘atining shoh asarlari sifatida qadrlanib ijro etilmoqda.

⁷⁹ Вызго Т.С. Ренессансные тенденции в Среднеазиатской науке о музыке// Художественная культура Средней Азии. – Ташкент, 1983. – С. 36.

⁸⁰ Виноградов В.С. Классические традиции иранской музыки. – М.: Сов. композитор, 1982. – С. 28.

⁸¹ Амир Темур жаҳон тарихида. – Тошкент, 1996. – Б. 78.

Keyingi paragraf **“Shashmaqom umuminsoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonasi”** deb nomlanadi. 1983-yildan boshlab Maqom ijrosi va maqom ansambllari tanlovlari bo‘lib o‘tmoqda. 2003-yili “Shashmaqom musiqasi” YUNESKO tomonidan “Insoniyatining nomoddiy madaniy merosi durdonasi” deb tan olindi va “Shashmaqom” (Tojikiston bilan birgalikda) 2008-yilda YUNESKOning Ilg‘or tajribalar reyestriga kiritildi⁸². Shashmaqomning o‘tgan asrlarda shakllangan ijro va eshitish san‘ati hamda jamiyatning zamonaviy musiqa madaniyati G‘arb musiqa auditoriyasini o‘ziga rom etmoqda.

O‘zbekistondagi Xalqaro Maqom guruhi an‘anaviy musiqa san‘atining ilmiy asoslari va amaliyoti bo‘yicha faoliyat olib boradi. Ushbu Maqom guruhi har to‘rt yilda bir marta xalqaro ilmiy konferensiya tashkillashtiradi va uning ilmiy materiallarini nashr etib boriladi. 2005-yilda esa “Shashmaqom: an‘analar va zamonaviylik” mavzusida O‘zbekistondagi mashhur xonandalar ishtirokida ustoz-shogird uslubida konferensiya va festival bo‘lib o‘tdi.

Bugungi kunda Shashmaqomni ilmiy o‘rganish ishlari bilan AQSH, Germaniya, Polsha, Buyuk Britaniya, Fransiya kabi davlatlarning olimlari izchil tadqiqotlar olib borishmoqda. AQSH va Germaniyada ham maqom ansambllari faoliyat yurityapti. Maqomlar – betakror ma‘naviy meros, uning maqom, mug‘am, mukam, nu‘ba, dastgoh kabi janrlarining an‘anaviy tizimi bo‘lib, ular asrlar osha mahalliy madaniyat asosida shakllangan. O‘zbekistonda maqom asboblari cholg‘u yo‘llari va ashula yo‘llari sifatida dutor maqomi, Xorazmda – dutor maqom yo‘llari, Farg‘onada – surnay maqom yo‘li) yoki ashula yo‘li, maqom ashula yo‘llari, maqom asarlarida bastakorlardan Ushshoqi Sodirxon, Xodja Abdulaziz Ushshoqi, Mulla Tuychi Ushshoqi va hokazolar mavjud bo‘lib, uning turli xil ko‘rinishlari sifatida Buxoro Shoshmaqomi, Xorazm maqomi va Farg‘ona-Toshkent maqom uslublari sifatida saqlanib qolgan. Ushbu tizim o‘zbek maqomi yoki “maqomati o‘zbek” deb ataladi.

Nomoddiy merosimiz ham tariximizning har bir bitigida namoyon bo‘ladi. 2003-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (YUNESKO) tomonidan “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasi” e‘lon qilindi, u 2006-yil kuchga kirdi. O‘zbekiston Respublikasi Konvensiya a‘zo bo‘lib, hozirgi kunda 143 mamlakat ushbu Konvensiya ishtirokchisiga aylandi⁸³.

Ushbu merosni asrash va targ‘ib qilish maqsadida 2010-yil 7-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob‘yektlarini o‘rganish, targ‘ib etish va undan foydalanish” Davlat dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur tom ma‘noda nomoddiy merosimiz uchun yangi komillik davrini boshlab berdi. Ushbu dastur 9 ta bo‘lim, 57 ta bandi mavjud,

⁸² YUNESKO ning sertifikatini Shahrizabzdagi Maqom muzeyi ekspozitsiyasida namoyish etilmoqda.

⁸³ 2010-2020 йилларда номоддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш, асраш, тарғиб этиш ва улардан фойдаланиш давлат дастурини тасдиқлаш ҳақида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 7 октябрдаги 222-сонли қарори.

shundan 10 ta bandiga O‘zbekiston Respublika Madaniyat vazirligi asosiy ijrochidir⁸⁴.

